

ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY QARASHLARI VA KONFUTSIYCHILIK AXLOQIIY TA'LIMOTI IJTIMOIIY JIHATLARINING KOMPARATIVISTIK YO'NALISHLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-569-576>

Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich

Falsafa fanlari bo'yicha PhD, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası

nihatchetin@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada islom tafakkurining yirik vakili Abdurahmon ibn Xaldunning ijtimoiy qarashlari hamda Xitoy falsafiy tafakkurining yirik vakili Konfusiyning ijtimoiy qarashlari qiyosiy tahlili muhokama qilingan. "Asabiyya" kategoriyasi Xaldunning ijtimoiy falsafiy qarashlarida muhim ahamiyatga ega. Maqolada Ibn Xaldun qarashlaridagi yovvoyilik, tavahhush, ibtidoiylilik, badaviya, tamaddun, xadaro kabi tushunchalar asosida mulohazalar keltirilgan. Mazkur mulohazalar asosida xulosa va tahlillar ilgari surilgan. Shuningdek, maqolada Konfusiyning axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, jumladan, Jen – "insoniy ibtido", "insonlarga bo'lgan muhabbat", "shafqat", "insonparvarlik", I – "haqiqat", "adolat", Li – "an'ana", "urf-odat", "udum", Sin – samimiylilik, ezgu fikr, erkinlik va vijdonlilik axloqiy tushunchalari asosida mulohazalar yuritilgan. Maqola xulosa qismida Konfusiyning qarashlarida jamiyatni isloh qilish takliflari berilgan.

Kalit so'zlar: Ibn Xaldun, "Muqaddima", yovvoyilik, tavahhush, ibtidoiylilik, badaviya, tamaddun, xadaro, "asabiyya", Konfusiyning axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, an'anaviy konfusiychilik, Jen – "insoniy ibtido", "insonlarga bo'lgan muhabbat", "shafqat", "insonparvarlik", I – "haqiqat", "adolat", Li – "an'ana", "urf-odat", "udum", Sin – samimiylilik, ezgu fikr, erkinlik va vijdonlilik

Abstract. This article discusses the comparative analysis of the social views of Abdurrahman ibn Khaldun, a great representative of Islamic thought, and the social views of Confucius, a great representative of Chinese philosophical thought. The category "Asabiyya" is important in Khaldun's social philosophical views. Suggestions for reforming society are given in Confucian views.

Keywords: Ibn Khaldun, "Introduction", wildness, tawahhush, primitiveness, Bedouinism, civilization, Hadaro, "asabiyya", Confucian ethical and socio-political

views, traditional Confucianism, Jen - "human primitiveness", "love for people", "compassion" , "humanity", I - "truth", "justice", Li - "tradition", "custom", "custom", Sin - sincerity, good opinion, freedom and conscientiousness

KIRISH

Ibn Xaldun islom dunyosining ilmiy va g'oyaviy tarixida eng Taniqli shaxslardan biridir. Bu shuhrat, mashhurlikni birinchi navbatda uning kitobi olib keldi. Bu kitob Sharq va g'arbning fikr osmonida bir yorqin yulduz misoli charaqladi. Bu kitob orqali Ibn Xaldun bir yangi yo'l ochdiki, birinchi darajali faylasuf-muarrif va sosiologiya asoschisi degan unvonga sazovor bo'ldi. Ikkinchi unvonni garchi ba'zi izohlar bilan qabul qilish lozim bo'lsa ham.

Ibn Xaldun o'tgan voqealarni baholashning oqilona kriteriyalarini ko'rsatish uchun, uncha ishonch tug'dirmaydigan bir necha tarixiy rivoyatlarni keltirib, muarrifning rostgo'yligi va xolisligi masalasini ko'tarishdan avval, bunday rivoyatlardan foydalanish nimalarga olib kelishini ta'kidlamochi bo'ladi.

Xitoydagi tartibsizlik, siyosiy beqarorlik va boshboshdoqlikni tugatish uchun Konfusiyo o'ziga xos chora-tadbirlarni taklif qildi. Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun Konfusiyo siyosiy va ma'naviy ta'limotlardan tashqari sof axloqiy tizimni ilgari surdi. Konfusiyo fikricha, buning uchun insonlarni tarbiyalab, ularni axloqiy norma larga rioya qilishga chaqirish kerak, shundan so'ng davlatning o'zi muvozanatga keladi. Muammolarni hal qilishda faqat siyosat va iqtisodiyotga emas, balki insonning ruhiy-ma'naviy holatiga tayanib ish ko'rish kerak. Shu tahlilda, Konfusiyo davlat ahamiyatiga molik muammolarni inson omili kesimida hal etishga da'vat qiladi. Konfusiyo moddiy va ruhlar dunesini, Samo bilan muloqotni tan olgan holda, kundalik hayotda oddiy axloqiy normalar va qoidalarga rioya etishni taklif qildi. Bu axloqiy normalar, qoidalar, marosimlar muqaddas hodisa hisoblanar edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Xaldun inson ibtidosining hayvonot olami ichida bulgan vaqtini yovvoyilik (tavahhush) deb atashgan. Inson tabiat qo'ynida faoliyat yuritir ekan, kichik jamiyatlarga (ijtimo) uyushib yashay boshlashdi. Ijtimo bu jamiyat, u o'z taraqqiyoti davrida ikki bosqichni ibtidoiylikni (badaviya) va tamaddun (xadaro) bosqichlarini bosib o'tadi. Ya'ni, Ibn Xaldun jamiyatni ikki turga bo'ladi: madaniy bo'lmagan (ya'ni yovvoyi) jamiyat va madaniy (ya'ni shahar) jamiyati. Uning fikricha, inson tabiatiga ko'ra jamiyat ichiga yashashga majburdir. Shuningdek, Ibn Xaldun jamiyat shakllanishi va yashashida diniy aloqalarning mavqeini pasaytiradi.

Ibn Xaldun fikricha, ijtimoiy tartib-intizomni tiklash va jamiyatni idora etish tabiiy hodisadir. Bu hodisaga hech qachon payg'ambarlikning barhaqligini isbotlash dalili

deb munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik kerak. Sababi, insonlarning jamoa bo'lib yashashi, payg'ambarsiz ham mavjud bulishi mumkin, bunday jamiyatlar paydo bo'lgan va bo'lmoqda.

Ibtidoylik va tamaddun insoniyat jamiyatining sifat jixatdan farqli bo'lgan ikki bosqichdir. Bu ikki bosqich hududiy jihatdan bir-biriga yaqin joyda ham mavjud bo'lishi mumkin. Masalan: Arabiston yarim orolidagi ko'chmanchi qabilalari va Mespotamiya qadimiy tamadduni.

Ibn Xaldun jamiyat haqida fundamental fikrlarini davom ettiradi. Mutafakkirning fikricha, taassub jamiyat hayotining asosi, ya'ni poydevoridir. "Taassub", "asabiyya" atamalari arab tilidan kelib chiqqan. "Taassub" so'zi, "taassaba" V bob fe'lining masdar shaklidan bo'lib, tarjimasi «Vatan, millatga bo'lgan otashin muhabbat, fanatizm» demakdir.

Ibn Xaldun «asabiyya» atamasini quyidagi ma'nolarda qo'llaydi:

1. Qon -qarindoshlik aloqasi .
2. Qon-qarindoshlik munosabatlari orqali bog'liq bo'lgan odamlar guruhi.
3. Qon-qarindoshlik asosida shakllangan birdamlik hissiyoti . Ibn Xaldun ijtimoiy hayotiy tartibning bo'rtib turuvchi o'zak omili taassub deb biladi. Endi «asabiyya», ya'ni «taassub» tushunchasining mohiyatini va jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganib chiqamiz.

Jamiyat ibtidoiylkdan tamaddunga o'tar ekan, shu bilan bir vaqtda, bu jarayon ibtidoiy demokratiya va tengsizlik munosabatlaridan bo'ysunish, boshqarish munosabatlariga o'tishini ham o'zida ifoda etadi. Ibtidoiylk bosqichida odamlarni bog'lab turadigan munosabatlarni Ibn Xaldun «asabiyya» deb nomlagan . Bu tushuncha qabila, urug' va ularning birlashmalarini o'zida ifoda etadi. Boshqa jixatdan, «asabiyya» odamlar o'rtasidagi qon -qarindoshchilik munosabatlari asosida shakllanadigan aloqadir. Bu faqat bir qabila yoki urug'ni birlashtiradigan «qon sadosi» emas. Odamlarning birlashmalari urug'ni, qarindoshchilikni anglashga olib keladi. Bu birlashma, ittifoqlar turli xil shakllarni o'zida ifoda etishi mumkin: Xilf (bir qancha urug' va qabilalarning ittifoqi), istisno (naturalizasiya ya'ni begonalarni qabilaga qabul qilish), riqq (qulchilik, to'g'rirog'i chet elliklarga homiylik) "vila" yoki "vilaya" (butun bir urug' yoki qabilaga homiylik) . Shunday qilib, "asabiyya" qon-qarindoshlik, ittifoq aloqa birligidir. U ya'ni, "asabiyya" tipidagi guruhlar ichidagi boshqaruv oqsoqollar tomonidan boshqarilar edi. Oqsoqollar hokimiyati jamoa oldidagi hurmatga asoslanadi. Jamoa mudofaasi yosh va kuchli guruh tomonidan tashkil qilinadi. Nisbiy tenglik munosabati homiylik ostidagilar, qular va ittifoqchilarga ham tadbiiq etiladi . Rasman ular "asabiyya"ning teng huquqli qismini tashkil etardi, lekin amalda ularning qabila ichida huquqlari cheklangan edi. Qabilaga qabul qilingan

(mulsaq) qabila yo'lboshchisi bo'lishi mumkin emas edi, chunki qabila oqsoqolligi "nisab" oqsuyak oilalar ichidagi vorislikka qarab belgilanar edi. Asabiya munosabatlari nisbatan tenglikka asoslanganligi uchun, u noteng munosabatlarga aylanishi mumkin edi. "Muqaddima" muallifi hamma a'zolarining tengligiga asoslangan "asabiya" guruhlarining birligi va boshliqning shaxsiy sifatlariga asoslangan boshqaruvning zaruriyati o'rtasidagi dialektik bog'liqlikka urg'u berib utadi. Ibn Xaldun jamoadagi yo'lboshchini "matbu", ya'ni "zo'rliksiz boshqaruvchi kishi" deb ataydi. O'zini boshqaruv esa tengsizlikka asoslanadi, chunki rahbarlik qilish majburlashni talab qiladi. Urug' o'rtasidagi aloqalar kuchli bo'lsada, sekinlik bilan "rahbarlik-ergashish" munosabati "hukmronlik-tobelik" munosabatiga aylanadi. Lekin nima uchun urug', rahbariyatning nisbiy tangligi, boshqalar ustidan hukmronlikka aylanadi? Bunga javobni biz "asabiyya"ning antitezasi, ya'ni "qarama-qarshi" tushunchasi "mulk"ni o'rganib chiqib topamiz.

Ibn Xaldun mulk tushunchasini ikki xil ma'noda "hokimiyat-mulk" va "er-mulk" ma'nolarida ishlatadi. Ibn Xaldun taassubga ta'rif berib, shunday deydi:

"Odamlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari, ba'zi hollarni istisno qilganda, bu tabiiy hodisa, bundan kishining qarindoshlari va yaqin kishilari hayoti, mol-mulki, or-nomusiga tajovuz va xavf tahdid solganda, g'amho'rlik qilishi kelib chiqadi".

Ma'lumki, qon-qarindoshlik va urug' qabilachilik munosabatlari ba'zan shunchalik yaqin bo'ladiki, birgina shuning o'zi birlashib ketishga sabab buladi, ba'zan esa munosabatlar uzoq bo'lsada, ammo qabilachilik manfaatlarining mos kelishi butun bir xalqning yakdil bo'lib birlashishiga sabab bo'ladi. Do'stlik munosabatlari ham shunday. Ibn Xaldun mustahkam qon-qarindoshlik aloqalari namunasini badaviy arablarda va boshqa ko'chmanchilarda ko'rish mumkin. Chunki ularning hayot tarzi urug' va qabilalar aro nikohlar natijasida nasllarning aralashib ketishi, qarindoshlik iplarining uzilishiga mone'lik qiladi deb ishonadi.

Konfusiylar oiladagi axloqiy qoidalarni davlat darajasiga olib chiqdi va "Butun dunyo – yagona davlat" g'oyasini ilgari surdi. Bu erda "Butun dunyo" sifatida Xitoy nazarda tutilmoqda. Mamlakatdagi uyg'unlikning kafolati har bir insonning jamiyatda o'z o'rniga ega ekanligi bilan belgilandi. Konfusiylar bu holatni, ya'ni insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillarini "da lun", deb nomladi. Bu munosabatlarning asosi sifatida insonparvarlik belgilandi. Konfusiylar axloqshunoslikning oltin qoidasi bo'lgan "O'zingga tiravo ko'rmagan narsani, birovga ham ravo ko'rma" qoidasini ilgari surdi.

Har bir o'zini hurmat qilgan inson marosim va udumlarga rioya qilishi kerak. Oliyjanob kishi g'oyasi yuqori madaniyatga ega insonni nazarda tutadi. Oliyjanob kishi haqida quyidagicha fikr yuritiladi: "Oliyjanob kishi taom, oziq-ovqat haqida

o'ylamaydi, u faqat Yo'l, "Dao" haqida o'ylaydi. Inson ocharchilikdan qo'rqqani uchun ziroatkorlik bilan shug'ullanadi, amalga erishish, yaxshi haq olish uchun bilim oladi. Oliyjanob kishi esa qashshoqlikdan qayg'urmaydi, u Dao haqida qayg'uradi".

Insonda madaniyatlikning yana bir mezonni bor, bu mezonni, o'lchovni bilish bilan izohlanadi. Hayvon o'ljani, ozuqani ko'rar ekan, uni hohlagancha eyishga intiladi. Yirtqich o'ljasini o'zining sillasi qurib yiqilishiga qadar ta'qib qilishga harakat qiladi. Inson esa ulardan farqli ravishda o'zining o'lchovini, mezonini bilishi zarur. Buni Konfusiylar "Oltin o'rtalik", deb nomlagan.

Konfusiylarning ta'kidlashicha, "oltin o'rtalik" ezgulik tamoyili bo'lib, xalq uni allaqachon esdan chiqargan. Mutafakkir o'zi haqida ham tanqidiy fikr bildirib o'tgan.

Konfusiylar o'zini oliyjanob kishi, deb bilmagan. Mutafakkir quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Oliyjanob kishi oldida tanlashi kerak bo'lgan uch yo'l mavjud. Men ularning hech biridan oxirigacha o'ta olmadim. Bu uch yo'lda uch xil xususiyat bor, insonparvarlik insonni havotirdan xalos qiladi, bilim esa shubhadan holi qiladi, botirlik esa insonni qo'rquvdan xalos qiladi".

Demak, Konfusiylar fikricha, inson oldida zohid bo'lish(insonparvarlik), amaldor bo'lish(bilim) va harbiy sarkarda bo'lish(botirlik) yo'llarini tanlash qo'yilgan ekan. Lekin Konfusiylar, darhaqiqat, yuqoridagi hech bir yo'lni tanlamadi, u ustoz, o'qituvchi bo'ldi.

Konfusiylarning fikrlari o'z shogirdlari bilan qilgan suhbatlari tarzida saqlanib kolgan. Uning suhbatlari mazmuni o'z ifodasini topgan "Suhbatlar va hukmlar" (Lun yuy) kitobi eng ishonchli manbadir; Konfusiylar o'zini qadimgi ajdodlar donishmandligining saqlovchisi va sharhlovchisi sifatida tanitgan. U o'z zamondoshlarini Qadimgi Xitoyning afsonaviy hukmdorlari bo'lgan Yao, Shun va Yuylardan o'rnak olishga chaqirgan. Ularning xayrli ishlari haqidagi hikoyalar avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan edi.

Ijtimoiy burchga sodiqlik va xolislik bilan nom chiqargan hukmdor Yao xalqni ma'rifatli qilgan, barchaga mehr bilan qarab, fuqarolik va qonunchilikni joriy etgan. Uning hukmronligi davrida uylarning eshigi qulflanmagan, yo'qolgan narsalar esa, egalari qaytarilgan.

XULOSA

Ibn Xaldun "Muqaddima"sida mulkning shakllanishini yoki qabila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va tengsizlik munosabatlarini ochib berdi. Ibn Xaldun tamaddun va "hokimiyat-mulk" o'rtasidagi aloqaga ahamiyat berdi. Agar ibtidoiylik va tamaddunni diaxron, ya'ni birin-ketin keladigan bosqich, yoki sinxron, ya'ni bir vaqtda mavjud sifatida qarasa, tamaddunga o'tish omili mulkning shakllanishidir.

Shunday qilib, asabiyya ahir oqibat mulk shakllanishiga olib keladi, shuningdek qabila yoki urug‘da hukmronlik va tobelik munosabatlarini vujudga keltiradi. Ibn Xaldun mulkning nafaqat ortiqcha mahsulotning vujudga kelishining natijasi, balki odamlarning hokimiyat, boylikka bo‘lgan tabiiy intilishi natijasi ham deb biladi.

U holda, tarixni mulkni bir sub'ektdan ikkinchi sub'ektga o‘tish jarayoni yoki qayta taqsimoti deyish mumkin. Bu taqsimot ibtidoiylilikdan tamaddunga o‘tish chog‘ida, masalan, ko‘chmanchilar tomonidan “madaniy” insonlarga tegishli mulkning egallanishida ro‘y beradi. Lekin tamaddun ortiqcha mahsulotning ishlab chiqarilishi natijasida yashashda va rivojlanishda davom etadi. Shuning uchun mulk yangi taassub vakillari o‘rtasida taqsimlansada, tamaddun singari faqat o‘shish holatida bo‘ladi.

Konfusiyning axloqiy-siyosiy ta'limoti qandaydir nazariy bilish asosiga tayanmaydi. Bilim (chji) va uning kelib chiqish masalasini Konfusiyni qadimgi kitoblarni o‘rganish va qadimgi ajdodlar tajribasidan iqtibos qilishda, deb bildi. Uningcha, bilimning asosiy manbasi o‘qishdir va uning manbasi esa, qadimgi rivoyatlar va solnomalardir. Shuning uchun konfusiychilikka jamiyat taraqqiyotidagi ilgari va yangi tajribaga tanqidiy munosabatda bo‘lib, ulardan xulosalar chiqarish yot edi. Tabiatshunoslik fanlariga umuman e'tibor berilmagan edi. Har qanday yangi hodisa eskiga tajriba nuqtai nazaridan baholanar va o‘tmishga borib taqalar edi. Masalaning bunday qo‘yilishi Xitoy o‘tmishini ideallashtirishga olib keldi. Konfusiychilik ta'limoti muhofazakorona fikrlar tayanchiga aylandi. Eramizdan oldingi 200- yil bilan eramizning 220 yilgacha bo‘lgan davrda konfusiychilik din sifatida ham shakllandi. O‘zining mazmuniga ko‘ra konfusiychilik diniy marosimi Qadimgi Xitoyda tashkil topgan oilaviy-urug‘chilik urf-odatlarini qonuniylashtirib, qadimgi qonun va ko‘rsatmalarga qat’iyan rioya etish talabi bilan chiqdi. Ulardan eng muhimi ajdodlarga sig‘inish edi. Konfusiychilikning diniy e'tiqodiga ko‘ra, ajdodlar ruhini hurmatlash va o‘g‘illik ehtiromi («syao») insonning bosh majburiyatidir.

An'anaviy konfusiychilikning asosiy tushunchalari quyidagilar: «Li» - urf-odat va marosimlarga rioya etish, udum; «Si» - axloqiy me'yorlarni amalga oshirish; «In» - ijobiy ibtido, «Yan» - salbiy ibtido, «Dao» - osmon, koinot yo‘li bo‘lib, muayyan tartib va qonunga binoan mavjud, uning ifodasi esa insonning xulq-atvori bo‘lishi lozim, «Chjen» - insonparvarlik, «I» - burch, «Sin» - samimiylilik va ba'zi boshqalar.

Konfusiyning axloqiy qarashlari butun Xitoyning rivojlanishiga va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qildi. Konfusiyni g‘oyalari Xitoyda yagona madaniyat va millat shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Konfusiyning axloqiy ta'limoti

nafaqat Xitoy, balki Koreya, Yaponiya, Vetnam kabi mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotiga asrlar mobaynida kuchli ta'sir o'tkazib keldi.

Abdurahmon ibn Xaldun ijtimoiy qarashlarida qon-qardoshlik tamoyillarini jamiyat va davlat rivojlanishining asosi sifatida mulohaza yuritib, Li Yul'gok konfusiychilik asosidagi axloqiy tamoyillarni jamiyat va davlat taraqqiyotining asosi sifatida mulohaza yuritadi.

Ibn Xaldunning jamiyat haqidagi qarashlarining ob'ektiv xususiyati bizning davrimizga kelib, uning qiymatini oshirib yubordi. Mutafakkirning jamiyatning vujudga kelishi, taraqqiyoti, tuzilmalar to'g'risidagi fikrlari, iqtisodiy asoslari, geografik omillarga oid qarashlar, uning har xayotdagi kuzatuvlari natijasi desak xato bo'lmaydi.

Uning qarashlari turli oqimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ibn Xaldunni xatto jamiyat rivojining siklik xarakati, sabab-oqibat munosabatlari, ortiqcha maxsulot ishlab chiqarishning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga doir fikrlari sabab, "Arab Marksi", "Marksgacha bo'lgan marksist", "Arab Monteskesi" deb atashdi. Lekin Ibn Xaldunning jamiyat haqidagi qarashlarida siklik rivojlanish nazariyasining Evropadan avval, XIV asardan ilgari surilganligi diqqatga sazovordir.

REFERENCES

1. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
2. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.
3. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
4. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 9-14.
5. Sulaymonov, J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni. 42-45 betlar.

6. Sulaymonov, J.B. Ibn Haldun qarashlarida geografik determinizm ildizlari //Sharqshunoslik jurnali. 2018 yil 4-soni. 124-128 betlar.
7. Sulaymonov, J. B. (2020). Vzglyadi Abdurrahmana ibn Xalduna o razvitiya obshestva i sivilizatsii. Mejdunarodniy nauchno-prakticheskiy jurnal" Ekonomika i sositium, 12, 79.
8. Sulaymonov, J. (2024). "MUQADDIMA" ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY FALSAFIY MEROSINING ASOSIIY MANBASI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 5(5), 759-767.
9. Sulaymonov, J. (2024). ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY FALSAFIY MEROSINING YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 653-661.
10. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Analysis of the Phenomenon of" Assabiya" In the Socio-Philosophical Concept of Abdurahman IBN Khaldun. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 219-223.
11. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOIIY QARASHLARI VA LI YULGOK IJTIMOIIY QARASHLARINING QIYOIIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.